

G'ARB MAMLAKATLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10926132>

Sheranova Maryam.

JDPU Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrası

Kata o'qituvchisi

Qurbonova Maqsuda

Pedagogika va psixologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Annatatsiya

Ushbu maqolada chet elda oilava oilaviy munosabatlar masalari haqida qadimgi Yunoniston, qadimgi Rim, yevropa davlatlari mutafakkir olimlari asarlarida yoritilishi, oilada farzandlarni tarbiyalashga oid fikrlari, shuningdek rus pedagoglarning oila pedagogikasiga oid qarashlari hamda oila tarbiyasi va uni samarali tashkil etish g'oyalarining aks etilishi.

Аннотация

В данной статье освещаются вопросы семьи и семейных отношений за рубежом в трудах ученых-мыслителей Древней Греции, Древнего Рима, европейских государств, отражаются их взгляды на воспитание детей в семье, а также взгляды российских педагогов на семейную педагогику и идеи воспитания семьи и ее эффективной организации.

Annatation

This article will cover the topics of family and family relations abroad in the works of thinkers of Ancient Greece, Ancient Rome, European states, their thoughts on raising children in the family, as well as Russian educators ' views on family pedagogy and reflections on family education and ideas of its effective organization.

Kalit so'zlar

oil, bola, farzand tarbiyasi, onalar maktabi, oilada otaning ro'li, oilaviy muhit, jamiyat, saodat.

Ключевые слова

семья, ребенок, воспитание детей, школа матери, роль отца в семье, Семейная среда, общество, счастье.

Key words

family, child, child education, mother's School, father's roll in the family, family environment, society, happiness. Keywords family, child, child education, mother's School, father's roll in the family, family environment, society, happiness.

Oila jamiyatning kichik, biroq eng asosiy bo'g'ini sanaladi. Zero, mavjudligi unda yashovchi kishilarni o'z ichiga olgan oilalarning borligi bilan belgilinadi. Shunga ko'ra oila va jamiyat o'rtasidagi aloqaning mustahkamligi, bir-birini taqozo etishini hoyatda muhim. Bu muhimlik jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishi uchun nafaqat ta'lim muassasalarida, balki oilada

ham bola(farzand)lar tarbiyasini to'g'ri, samarali tashkil etishni taqozo qilishida aks etadi. Xususan, hukumatimiz tomonidan oila rivojiga ulkan hissa qo'shib, ularga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan O'zbekiston respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1993-yil 23- aprelidagi Farmoni asosida "Sog'lom Avlod uchun" Halqaro jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaning faoliyati ona va bola sog'ligini muhofaza qilish, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibiiy madaniyatni yuksaltirish, millatning genafondini shakllantirishga yo'naltirilgan. Umume'tirof etilgan shiyor- 'sog'lom ona-sog'lom bola" tamoili mohiyatiga ko'ra aholini jipslantiruvchi va safarbar etuvchi murojaat bo'lib,davlat va jamiyat darajasiga ko'tarilgan ustuvor vazifaga aylandi. Muhtaram birinchi prezidentimiz I. Karimov Vatan sajdagog kabi muqaddasdir nomli asarida shunday deydi: Odamzod dunyoda juda ko'p kasb- u hunarning egasi bo'lishi mumkin.Quruvchi, dehqon, bog' bon, shoir, olim bo'lib nom qozonish, mol- mulk ortirishi mumkin. Lekin Alloh taolo insonga ato etgan eng katta boylik, eng ulug' burch borki, uni dunyodagi hech bir narsa bilan qiyos etib bo'lmaydi. Bu farzand ko'rib ota bo'lish, ona bo'lish baxtidir. Bu faqatgina baxt- u saodatgina emas, balki yaratganning oldida, El- yurt oldida juda katta ma' suliyat ham demakdir. Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki,hayotning ma'nosi qobil farzandlarni o'stirish, ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan Mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish, ota - onasiga, vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir"! Shu o'rinda shuni ham aytib o'tishimiz kerakki bola tarbiyasi va uning yetuk shaxs bo'lib yetishida oilaning ro'li nihoyatda kattadir. Oilada bolaning aqliy faoliyati kamol topadi; dunyoqarashi, tafakkuri shakllanadi, kishilarga nisbatan mehr-oqibat hissitarbiyalanadi. Bolaning bilimi,qobiliyati va malakalarining shakllanishi aynan oila va oilaviy tarbiyaga bog'liq.O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 19-20-yanvar kunlari surxondayyoga tasrif buyurib,o'z nutqida oila masalalariga ham toxtalib «Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!», – deya ta'kidladi.. Muhtaram yurtboshimiz SHavkat Mirziyoyev o'z nutqida oila to'g'risida quyidagi fikirlarni bildiradi: "bolaning tarbiyasi va uning yetuk shaxs sifatida shakllanishida oilaning roli nihoyatda kattadir.Oilada bolaning aqliy faoliyati kamol topadi,dunyoqarashi,tafakkuri shakllanadi,kishilarga nisbatan mehr-oqibat hissi tarbiyalanadi.bolaning bilimi,tarbiyasi aynan oilaviy turmush tarziga bog'liq. Buni ajralish yoqasiga kelib qolgan, 23 mingga yaqin oila yarashtirilgani, ajrimlar soni 3 mingdan ziyodga kamaygani ham, ko'rsatib turibdi.-Lekin bir achchiq haqiqatni tan olishimiz kerak. Bu raqamlar hamon yuqori bo'lib qolmoqda, – dedi Prezident. Oila - bu mehr va baxt qo'rg'oni.Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor.

Oilaviy baxt bu – eng ulug’ saodatdir. qobilyati va malakalarining shakillanishi aynan oil ava oilaviy tarbiyaga bog’liqdir”. Buni ajralish yoqasiga kelib qolgan, 23 mingga yaqin oila yarashtirilgani, ajrimlar soni 3 mingdan ziyodga kamaygani ham, ko’rsatib turibdi. Lekin bir achchiq haqiqatni tan olishimiz kerak. Bu raqamlar hamon yuqori bo’lib qolmoqda, – dedi Prezident. – Oila – bu mehr va baxt qo’rg’oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne’mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug’ saodatdir. Jumladan, prezidentimiz raisligida 2020- yil 18 mart kuni mahalla va oilamuammaolarini o’z vaqtida aniqlash hamda hal etish masalalari bo’yicha videoselektot yig’ilishi bo’lib o’tdi. SHu bois 2020-yil 18- fevralidagi farmoni qaroriga muvofiq, mahalla va oilani qo’llab quvatlash vazirligi tashkil etildi. Prezidentimiz shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 2- fevraldagi “Xotin -qizlarni qo’llab -quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to’g’risida”gi qarori oila mustahkamligini ta’minlash, uning ijtimoiy masalalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyasidagi obrosini oshirishga ko’maklashish hamda mamakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e’tirof etilish uchun asosiy poydevor bo’lib xizmat qiladi

Biz bilamizki Yevropada hududida qadimgi zamonda eng rivojlangan davlatlar sifatida qadimgi zamonda eng rivojlangan davlatlar sifatida qadimgi Yunoniston varim davlatlari tanildi. Boshqa davlatlar qatori bu davlatlarda ham oilaviy masalalar qadimdan boshlab, o’rganilib kelingan. Davlat boshqaruvida oilaning o’rni beqiyos hisoblanadi. Oila jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etganligi bois, ko’plab olimlar tomonidan oila borasida bir qancha nazariyalar ishlab chiqilgan.

Oilaning davlat rivojidagi ahamiyatini Suqrot, Demokrit, Plutarix, Kvtilian, Arastu, Aflotun kabi olimlarimiz tomonidan yetarli darajada asoslashga harakat qilgan. XVIII asrgacha yevropa davlatlarida oilaviy munosabatlar juda sust rivojlangan. Bu davrda ham bir qancha olimlar oila haqida o’z qarashlarini bayon qilgan misol uchun. Avgustinyan o’zining asarida shunday fikrlarni keltirib o’tadi. farzand tug’ilganidan so’ng u hayvonlardan ajralib turishi maqsadida emaklamasligiga yo’l qoyish kerak emasligini aytib o’tib ketadi. Yevropa uyg’onish davrida bit qanch buyuk yozuvchi olimlar tomonidan o’z asarlarida o’z nazariyalarini ilgari surishgan. Buni Uilyam Shekspir “Qirol Lir”, “Otello”, Tomas Morning “Utopiya”, Tomozo Kapanellaning “Quyosh shahri” asarlarida o’sha zamon oilaviy turmush manzarasini mohirona tasvirlangan. XVI asrdan boshlab o’zida mualliflarning hayotiy tajribalari asosida Evropada bevosita ta’lim hamda bolalarni to’g’ri tarbiyalash masalalarini yoritgan asarlar yaratila boshlandi. Ularning mualliflari “ma’rifatparvarlar” deb nomlandi. O’rta asr ma’rifatparvarlari orasida chex pedagogi Y.A. Komenskiy ‘buyuk didaktika” Jon Lokk “tarbiya haqida ayrim fikrlar”, Jon Jak Russo “ Emil yoki tarbiya haqida” I.G. Pestollosi “lingart va Gerturuda” “Gerturuda o’z bolalarini qanday qilib

o'qitadi" "Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi" asarlarida buyuk pedagogik olimlar oila va uning bola tarbiyasidagi o'rni masalasi batafsil bayon etilgan.

Rus pedagoglari orasida Konstantin Dmitriy Ushinskiy (1824-1870 yy.) munosib o'rin tutadi. Pedagogik faoliyatini ilmiy-ijodiy ish bilan qo'shib olib borgan K.D.Ushinskiy "Bolalar dunyosi" ("Detskiy mir"), "Muallimlar uchun qo'llanma" ("Posobie dlya uchiteley"), "Shaxs - tarbiya predmeti sifatida" ("Pedagogik antropologiyadan tajriba") kabi asarlarida oila va uning bola tarbiyasidagi o'rni masalasi batafsil yoritilgan. K.Ushinskiy maktabgacha ta'lim va tarbiyaning tabiiy vositasi - oila deb hisobladi. Binobarin, oilada bolalar borliq haqidagi dastlabki tushunchalarga ega bo'ladi, eng oddiy bilim va ko'nikmalarni egallaydi, odatlarni o'zlashtiradi, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bola shaxsining rivojlanishida ota-ona va tarbiyachilar asosiy rol ni o'ynaydi, ularning hayoti, faoliyati, xulq-atvori, muomalasi bolalar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Mas'uliyatli fuqarolik burchlarini bajarish uchun ota-onalar bolalarga nisbatan g'amxo'rliklarini ijtimoiy ahamiyatli talablar bilan uyg'unlashtira olishga erishishlari lozim. Buning uchun ota-onalar pedagogik bilimlarga ega bo'lishlari, pedagogik adabiyotlar bilan tanishib borishlari, tarbiyaviy ish uslubini, tarbiyachilarni to'g'ri tanlay bilishlari, farzandlarining kelgusi hayot yo'lini aniqlashga ongli yondasha olishlari lozim. Rus yozuvchisi Natalya Grigorovna Dolinina ham o'z ocherklarida oila sharoitida bolalarni axloqiy tarbiyalash masalalarini keng yoritdi. Adibaning pedagogik g'oyalarni o'zida aks ettirgan asarlari sirasida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: "Mening o'quvchilarim va ularning ota-onalari", "Non qancha turadi?", "Kattalar yoki bolalar?", "Qadrli ota-onalar" kabilardir. Bir so'z qilib aytganda, oila tarbiyasi va uni samarali tashkil etish masalasi xorijiy mamlakatlarida barcha davrlar uchun muhim ijtimoiy muammolardan biri sifatida e'tirof etib kelingan. Har bir davr va makonda ham jamiyatning ilg'or kishilari - mutafakkirlar, ma'rifatparvarlar va pedagoglar bolalarni oila sharoitida tarbiyalash, bu borada yuqori samaraga erishish masalalarini tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratganlar. Ular tomonidan yaratilgan aksariyat asarlarda oila tarbiyasining samarali tashkil etilishi ijtimoiy taraqqiyotni kafolatlashi, shu sababli bolalar tarbiyasini tashkil etishda ota-onalarning mas'ul ekanliklari bayon etilgan. Otaonalar tomonidan bolalarning etuk shaxs sifatida tarbiyalashga erishilishida ularning pedagog bilimlarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ular pedagogik bilimlarni o'zlashtirish orqali bolalarni oila muhitida etuk shaxs qilib tarbiyalashga imkon beradigan samarali metod va vositalardan xabardor bo'ladilar.

Hozirgi kunda g'arb mamalkatlari oila va oilaviy munosabatlar keskin ravishda boshqa qiyofada namoyon bo'lmoqda. Mafkuraviy xujumlar, ayniqsa "ommaviy madaniyat" xavfi kuchayib yoshlar onngini zaharlab oilaviy munosabatlarga jiddiy shikast yetkazmoqda. Aksariyat g'arb mamlakatlarida oila qurish va oila masalalari ikkinchi darajali bo'lib, ko'pchilik bunga ehtiyoj

sezishmayapti. Bundan tashqari ko'p g'arb davlatlarida bir jinslilar o'rtasida oila qurish avj olib ketilishi kuzatilmoqda. Aynan bu holatni ba'zi davlatlarda qonuniylashtirishi esa ayancli holat hisoblanadi. Bu kabi holatlar ko'plab insonlarning qarshiligiga sabab bo'lmoqda. Misol uchun Tomas Vulfning "manmanlik o'ti" romanida ham yosh moliyachining shahvoniy harakatlarini yozib bu holatlarni qoralatdi. Buyuk fransuz yozuvchisi Gi de Mopasson o'zining "Azizim" romanida o'sha davr siyosati, aholining turmush tarzi, va oilaviy munosabatlar, o'sha davr siyosatchilarning oilaviy hayoti mohirona bayon etilgan.

Keyingi yillarda britaniyalik bir necha diniy arbob oilaning taraqqiyot bilan bog'liq inqirozi fojiasi xususida o'zlarining ko'pincha iztirobli, umuman olganda, ishonchli mulohazalarini bildirishdi. Liverpul yepiskopi va bosh ravvin ushbu jarayon xususida odatdagi statistik ma'lumotlar yordamida mana bunday xulosa chiqaribdi: Britaniyada bolalarning 34 foizi nikohsiz tug'ilmoqda; taxminan shuncha miqdordagi katta yoshlilar ajrashish alamidani aziyat chekmoqda; kelgusi yigirma yil davomida britaniyalik bolalarning yarmidan ozrog'igina ota-ona tarbiyasini oladi va hk. Juda oz kishilargina quyidagi amaliy falokatlarga shubha bilan qaraydi: ma'lum bo'lishicha, AQShda qamalganlarning yarmidan ko'pi buzilgan oilalar farzandlari ekani, ota-onasining ajrashgani tufayli yetkazilgan kuchli ruhiy zarba erkak va ayollarga o'rta yosh, hatto keksalik chog'ida ham salbiy ta'sir ko'rsatib turishi aniqlangan. Yepiskop ham, ravvin ham bugungi tez o'zgarib borayotgan dunyoda oila boshpanasiga bolalar qatori kattalar ham hech qachon bu qadar muhtoj bo'lmaganidan birday tashvish chekadi, uni gunohlarning eng og'iri - xudbinlikka barbod qilishi mumkin, deydi. Hech kim o'zini qurbon qilishni istamaydi: barchamiz shaxsiy erkinlik deb atalmish ma'budga topinar ekanmiz, huquqlarimiz haqida jar solamiz, mas'uliyatimiz borligidan esa asabiylashamiz. Hayotdan olinadan saboq bizni nechog'li asabiylashtirmasin, bir narsa kundek ravshan: Adam Smitning raqobatbardosh xususiy manfaat himoyasini ulug'lashini kollektiv ijtimoiy rivojlanishning kaliti deb bilgan Tetcher-Reygan egotsentrizmi butun boshli tashabbusga xavf tug'diruvchi ko'plab baxtsiz hodisalarni talab etadi. Ochko'zlik ko'plab badavlat kishilar va moliya vazirlarini paydo qiladi, biroq endi uning xunini to'lash uchun uzoq vaqt kerak bo'ladi, bugun mana shu vaqt boshlandi. Qo'shimcha qo'riqchilar, qamoqxonalalar, ijtimoiy xizmatchilar va ijtimoiy ta'minot to'lovlarining kun-bakun kuchayib borayotgan qor bo'roni millionlab ijtimoiy va iqtisodiy chek qog'ozlarini uchirib yuribdi. Sotsialistik inqilob barbod bo'ldi; pirovardida kapitalizmni o'z ziddiyatlari bo'g'ib tashlashi ham mumkin.

Yevropa mamalkatlarida ayolni gulga qiyos etsalar, musulmon davlatlarida ayolni nafosat timsoliga qiyos etishadi. Oila borasidagi diniy, ilmiy va falsafiy yondashuvlarni kuzatsak, oila barqarorligida er-xotin munosabatlari asosiy o'rin tutishini ko'ramiz. Masalan, islomda nikoh orqali inson va oilani ulug'lashga, erkak va ayolning huquqlariga, ularning sha'niga va oilada tinchlikni saqlashga katta e'tibor qaratilgan: "Ayollar (uchun belgilangan huquqlar) o'z me'yorida

erkaklar (huquqi) bilan tengdir” iBu borada Abdurauf Fitrat: “Har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo‘ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi” deb ta’kidlagan..Islom ta’limotida oilaviy hayot muqaddas hisoblanadi. Chunki oila jamiyat binosining g‘ishti, bir bo‘lagidir. Agar binoning g‘ishtlari sog‘lom bo‘lsa, bino ham mustahkam bo‘ladi, aks holda, bunday bino yemirilish va qulash xavfi ostida qoladi.Shunday ekan, faoliyati bevosita nikoh-oila munosabatlari bilan bog‘liq mutasaddi xodimlar, oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solishda, avvalo, o‘zlari milliy qadriyatlarimiz, xalqimiz ijtimoiy ongsizligi haqidagi ma’lumotlardan ko‘proq boxabar bo‘lishlari, so‘ng oilaviy munosabatlar ishtirokchilarini ham bundan xabardor qilishlari oilaviy huquqiy munosabatlar tartibga solinishining nazariy asoslarini ta‘minlaydi.Oila muqaddas dargoh. Oila shunday ilohiy-mo‘jizaviy maskan-manzilki, uning sha'ni, sizning sha'ningiz, o‘z oilangiz obro‘sig a putur yetkazadigan hatti harakatlardan saqlaning! Hayotning lazzati shirin turmushda. Er-xotin inoq , bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lishsa bu baxtdir. Zero , zamin yaxshi bo‘lsa nihol beshikast o‘sadi. Oilaviy baxt sizniki, uning qadriga yeting.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Мирзиёев Ш.М.Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Т.: Ўзбекистон. НМИУ, 2017. – Б. 488.
2. Pedagogika tarixi G’ K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. 35-36-bet
3. Arxiv.uz sayti
4. Trosyan V. Istoriya obrazovaniya i pedagogicheskoy mo’sli. – Moskva: Eksmo, 2006.
5. kk.nevs.uz Shavkat Mirziyoyev nutqi
6. Uzreport.nevs.uzsayti
7. Ziyo.uz. Com sayti
8. Ijtimoiy .uz sayti
9. Bukhari .uz sayti
10. Sheranova M.B. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда маънавиятни шакллантиришда инновацион ёндашув. ISCIENSE Актуальные вызовы современной науки XXIV Международная научная конференция 26-27апреля 2018г. Сборник научных трудов. Выпуск 4 (24) часть 4.
11. “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni o‘qitishga yo‘naltirishning muammo va yechimlari” respublika ilmiy – nazariy anjumani materiallari. jizzax 2022- yil 19-aprel Oila – ruхий-маънавий кувват манзили. Ўралова о.р.- катта

ўқитувчи. умумий педагогика кафедраси ждпи.

12. Мухаммадиева Саййора Valijonovna. .Ahmad Yassaviyning ta'limiy axloqiy qarashlari. 6 noyabr 2023 yil